



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI

BUYRUG‘I

**Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 28-fevraldagi 62-son
buyrug‘iga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida**

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-maydagi 318-son qaroriga muvofiq, shuningdek, imkoniyati cheklangan talabalarni qo‘llab-quvvatlash va jamiyatda ijtimoiy faolligini oshirish hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasi talabgorlarini baholash mezonlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish maqsadida **buyuraman**:

1. Raqamli texnologiyalar vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasini tayinlash tartibini tasdiqlash to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi 62-son buyrug‘iga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. “Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi” DM (Sh. Sattarov), “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” DM (A. Muxitdinov), “UZINFOCOM” MChJ (E. Gimranov) **bir hafta muddatda** “O‘zbekistonning IT-iste’dodlari” (it-istedod.uz) portali orqali Vazirlik stipendiyasiga talabgor talaba va o‘quvchilarning “OneID” yagona identifikatsiya tizimi orqali ro‘yxatdan o‘tishi va arizalarini qabul qilish bo‘yicha texnik imkoniyatlarni ishlab chiqsin va amaliyotga joriy etsin.

Bunda, Raqamli ta’limni rivojlantirish boshqarmasi (S. Butanov), Elektron hukumat tizimini rivojlantirish boshqarmasi (A. Sulonov) mazkur bandning ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini muvofiqlashtirib borsin.

3. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari R. Karimjonov zimmasiga yuklansin.

Vazir



Sh. Shermatov

Raqamli texnologiyalar vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasini tayinlash tartibini tasdiqlash to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi 62-son buyrug‘iga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Buyruq va ilovadagi ““IT-Park University” raqamli universiteti” hamda “TATU va uning filiallari huzuridagi texnikumlar” so‘zlari chiqarib tashlansin.

2. Buyruqning 3-bandi birinchi xatboshi va a) kichik bandi chiqarib tashlansin hamda quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. TATU (B.Maxkamov), Toshkent shahridagi Inha universiteti (M.Djalalov), Toshkent shahridagi Amiti universiteti (B.Abdullayev), “Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi” DM (Sh. Sattarov):

Vazirlik stipendiyasi to‘g‘risidagi yangiliklarni ta’lim muassasalarining rasmiy veb-saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtirish;

Vazirlik stipendiyasini tayinlash tartibi bilan barcha talaba va o‘quvchilarni tanishtirish hamda ularga tegishli sharoitlar yaratish choralari ko‘rsin.”.

3. Ilovaning:

a) 3-bandi quyidagi yettinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin.

“Shuningdek, imkoniyati cheklangan talabalarni qo‘llab-quvvatlash va jamiyatda ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida, ushbu talabalar uchun **6 ta** qo‘shimcha kvota ajratiladi. Ajratilgan kvota Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim muassasalari uchun umumiy hisoblanadi.”;

b) 6-banddagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi” so‘zlari “Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi” so‘zlari bilan almashtirilsin.”;

d) 7-bandning uchinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

e) 13-bandi quyidagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Shuningdek, imkoniyati cheklangan talabalar uchun ajratilgan kvota Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim muassasalari uchun umumiy hisoblanadi.”;

f) 14-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“14. Vazirlik stipendiyasini tayinlashga talabgorlar tegishliligi bo‘yicha mazkur nizomning 1 va 2-ilovalardagi talablar asosida onlayn tarzda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun o‘rnatilgan tartibdagi o‘rtacha o‘zlashtirish GPA bali to‘g‘risidagi ma’lumotnoma;

akademik litseylarning o‘quvchilari uchun reyting (sinov) daftarchasi nusxasi; imkoniyati cheklangan talabalar uchun nogironligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma nusxasi;

xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalari nusxasi;

xorijiy tilni bilish darajasidagi sertifikatini hamda xalqaro IT-sertifikatining nusxasi;

mahalliy va xalqaro darajadagi hakaton yoki IT-tanlovlardagi ishtirokini tasdiqlovchi hujjatning, shuningdek, agar tanlovlarda sovrindor bo'lgan bo'lsa tegishli diplom (sertifikat)ning nusxasi;

o'quvchilar uchun xalqaro yoki respublika fan olimpiadalarida ishtirok etganligi, shuningdek, ushbu fan olimpiadalarida sovrindor bo'lgan bo'lsa tegishli diplom (sertifikat)ning nusxasi;

o'quvchilarning o'ziga oid uning maqsadlari, shuningdek narsa va hodisalarga subyektiv fikrlari bayon etilgan erkin mavzuda esse;

o'quvchilarning ijtimoiy faolligi (ma'naviy-ma'rifiy hamda turli xil yoshlar tadbirlarida ishtiroki) bo'yicha asoslovchi hujjatlarning nusxalari va boshqa qo'shimcha ma'lumotlar;

ICPC dasturlash olimpiadasida ishtirokini tasdiqlovchi hujjatning, shuningdek, agar tanlovlarda sovrindor bo'lgan bo'lsa tegishli diplom (sertifikat)ning nusxasi;

Vazirlik tadbirlarida volontyorlik faoliyatini tasdiqlovchi tegishli diplom (sertifikat)ning nusxasi;

Vazirlik Ishchi guruhi zarur hollarda hujjatlarning asl nusxalarini taqdim qilishni talab etishga haqli.”;

g) O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasini tayinlash tartibi to'g'risida nizomga 1-ILOVA quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**Vazirlik tizimidagi oliy ta'lim muassasalari uchun O'zbekiston Respublikasi
raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasi talabgorlarini
BAHOLASH MEZONLARI**

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1)	Talabgorning so'ngi ikki semestrda fanlardan olgan baholarining o'rtacha miqdoriga ko'ra	20 ball
	<i>agar talabgorning o'rtacha GPA bali – 76-80 foiz bo'lsa</i>	<i>10 ball</i>
	<i>agar talabgorning o'rtacha GPA bali – 81-85 foiz bo'lsa</i>	<i>12 ball</i>
	<i>agar talabgorning o'rtacha GPA bali – 86-90 foiz bo'lsa</i>	<i>15 ball</i>
	<i>agar talabgorning o'rtacha GPA bali – 91-100 foiz bo'lsa</i>	<i>20 ball</i>
2)	Talabgorning xalqaro ilmiy jurnallardagi maqolalari	10 ball
	<i>boshqa xalqaro ilmiy jurnallarda</i>	<i>5 ball</i>
	<i>“Scopus” ilmiy bazasi ro'yhatidagi ilmiy jurnallarda</i>	<i>10 ball</i>
3)	Xorijiy tillarni bilish darajasi*	20 ball
	<i>agar talabgor B1 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo'lsa</i>	<i>10 ball</i>
	<i>agar talabgor B2 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo'lsa</i>	<i>15 ball</i>
	<i>agar talabgor C1 va undan yuqori darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo'lsa</i>	<i>20 ball</i>
	<i>agar talabgor xorijiy til sertifikatiga ega bo'lmasa</i>	<i>0 ball</i>
4)	Xalqaro IT-sertifikat mavjudligi**	20 ball
	<i>agar talabgor boshlang'ich darajadagi sertifikatga ega bo'lsa</i>	<i>10 ball</i>
	<i>agar talabgor o'rta darajadagi sertifikatga ega bo'lsa</i>	<i>15 ball</i>
	<i>agar talabgor professional darajadagi sertifikatga ega bo'lsa</i>	<i>20 ball</i>
	<i>agar talabgor xalqaro IT-sertifikatiga ega bo'lmasa</i>	<i>0 ball</i>
5)	Mahalliy va xorijiy hakaton yoki IT-tanlovlardagi ishtiroki	15 ball
	<i>respublika darajadagi tanlovda ishtirok etsa</i>	<i>5 ball</i>
	<i>respublika darajadagi tanlovda sovrindor bo'lsa</i>	<i>10 ball</i>
	<i>xalqaro darajada tanlovda ishtirok etsa</i>	<i>10 ball</i>

T/r	Baholash mezonlari	Ball
	<i>xalqaro darajadagi tanlovda sovrindor bo'lsa</i>	<i>15 ball</i>
	<i>ishtirok etmagan bo'lsa</i>	<i>0 ball</i>
6)	ICPC dasturlash olimpiadasida qatnashish	10 ball
	<i>agar talabgor ICPC olimpiadasining chorakfinal bosqichida qatnashgan bo'lsa</i>	<i>3 ball</i>
	<i>agar talabgor ICPC olimpiadasining chorakfinal bosqichida TOP 20 ga kirgan bo'lsa</i>	<i>5 ball</i>
	<i>agar talabgor ICPC olimpiadasining chorakfinal bosqichida TOP 3 ga kirgan bo'lsa</i>	<i>7 ball</i>
	<i>agar talabgor ICPC olimpiadasining yarimfinal bosqichida TOP 20 ga kirgan bo'lsa</i>	<i>10 ball</i>
	<i>ishtirok etmagan bo'lsa</i>	<i>0 ball</i>
7)	Vazirlik tadbirlarida volontyorlik faoliyati uchun (vazirlik tomonidan sertifikat taqdim etilgan bo'lsa) ***	5 ball
	<i>agar talabgor Vazirlik 3 tagacha tadbirlarida volontyorlik faoliyatini yuritgan bo'lsa</i>	<i>3 ball</i>
	<i>agar talabgor Vazirlik 3 tadan ortiq tadbirlarida volontyorlik faoliyatini yuritgan bo'lsa</i>	<i>5 ball</i>
Jami		100 ball

h) O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasini tayinlash tartibi to'g'risida nizomga 2-ILOVA quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**Akademik litseylari uchun O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar
vazirligi stipendiyasi talabgorlarini
BAHOLASH MEZONLARI**

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1)	Talabgorning so'ngi ikki semestrda fanlardan olgan baholarining o'rtacha miqdoriga ko'ra	20 ball
	<i>agar talabgorning o'rtacha bahosi 4-4.29 baho bo'lsa</i>	<i>10 ball</i>
	<i>agar talabgorning o'rtacha bahosi 4.3-4.69 baho bo'lsa</i>	<i>15 ball</i>
	<i>agar talabgorning o'rtacha bahosi 4.7-5 baho bo'lsa</i>	<i>20 ball</i>
2)	Xorijiy tillarni bilish darajasi*	20 ball
	<i>agar talabgor B1 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo'lsa</i>	<i>10 ball</i>
	<i>agar talabgor B2 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo'lsa</i>	<i>15 ball</i>
	<i>agar talabgor C1 va undan yuqori darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo'lsa</i>	<i>20 ball</i>
	<i>agar talabgor xorijiy til sertifikatiga ega bo'lmasa</i>	<i>0 ball</i>
3)	Xalqaro IT-sertifikat mavjudligi**	20 ball
	<i>agar talabgor boshlang'ich darajadagi sertifikatga ega bo'lsa</i>	<i>10 ball</i>
	<i>agar talabgor o'rta darajadagi sertifikatga ega bo'lsa</i>	<i>15 ball</i>
	<i>agar talabgor professional darajadagi sertifikatga ega bo'lsa</i>	<i>20 ball</i>
	<i>agar talabgor xalqaro IT-sertifikatiga ega bo'lmasa</i>	<i>0 ball</i>
4)	Fan olimpiadalaridagi ishtiroki - xalqaro darajadagi fan olimpiadasida sovrindor bo'lsa – 20 ball; - xalqaro darajada fan olimpiadasida ishtirok etsa – 10 ball; - respublika darajadagi fan olimpiadasida sovrindor bo'lsa – 15 ball; - respublika darajadagi fan olimpiadasida ishtirok etsa – 8 ball; - ishtirok etmagan bo'lsa – 0 ball.	20 ball
5)	Mahalliy va xorijiy hakaton yoki IT-tanlovlardagi ishtiroki	10 ball

T/r	Baholash mezonlari	Ball
	<ul style="list-style-type: none"> - xalqaro darajadagi tanlovda sovrindor bo'lsa – 10 ball; - xalqaro darajada tanlovda ishtirok etsa – 7 ball; - respublika darajadagi tanlovda sovrindor bo'lsa – 7 ball; - respublika darajadagi tanlovda ishtirok etsa – 5 ball; - ishtirok etmagan bo'lsa – 0 ball. 	
6)	Umumiy faoliyati	10 ball
	<i>talabgor tomonidan yozilgan esse</i>	<i>5 ball</i>
	<i>Ijtimoiy faolligi (ma'naviy-ma'rifiy, kongilliy ishlar hamda turli xil yoshlar tadbirlarida ishtiroki)</i>	<i>5 ball</i>
Jami		100 ball

Baholash mezonlariga Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan tizimdagi ta'lim muassasalarini takliflariga asosan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

** Mazkur mezon tegishli normativ-huquqiy hujjat bilan tasdiqlangan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatiga muvofiq baholanadi.*

*** Mazkur mezon Raqamli texnologiyalar vazirlirigi tasdiqlangan va it-istedod.uz portalida e'lon qilingan xalqaro IT-sertifikatlar ro'yxatiga muvofiq baholanadi.*

**** Mazkur mezon vazirlik tomonidan berilgan sertifikat orqali baholanadi, sertifikatlar joriy o'quv yili davomida olingan bo'lishi kerak.*